

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 12/2 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI .....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка).....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI.....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li*  
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....217-223

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*  
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li*  
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI  
TATBIQ ETISH METODIKASI .....229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*  
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING  
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK  
TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li*  
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*  
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM  
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR  
TUSHUNCHASI .....259-265

*Valieva Xolida*  
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIQI .....266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*  
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING  
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....278-285

*Mamaraimova Zebo Shafokatovna*  
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK  
TAMOYILLARI .....286-290

*Turayev Yolqin Sherzod o'g'li*  
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....291-295

*Abdurasulova Shoirra Kushakovna*  
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI  
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*  
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI  
SIFATIDA .....306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омилевич</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOIYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

**Achilov Nuriddin Abdugafforovich**  
Termiz davlat universiteti Ijtimoiy  
fanlar fakulteti dekani, dotsent  
e-mail: [terdunuriddin@mail.ru](mailto:terdunuriddin@mail.ru)

### AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI

**Annotatsiya.** Maqolada al-Hakim at-Termiziyning vatanimizda o'rganilishi tahlili va allomalarning tavsifi hamda ularning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, alloma hayoti va asarlarining tahlili bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** hakimiya, yagona dur, millatning azimi, zohir, so'fiylik tariqati, ma'rifat, ma'rifatparvarlik.

**Achilov Nuriddin Abdugafforovich**  
Faculty of Social Sciences, Termiz State  
University dean, associate professor

### SCIENTIFIC RESEARCH OF THE DOCTRINE OF AL-HAKIM AT-TERMIZI

**Annotation.** The article analyzes the study of al-Hakim at-Tirmidhi in our country and describes the scholars and their content. Also, the analysis of the life and works of Alloma is described.

**Key words:** hakimiya, single dur, determination of the nation, Zahir, Sufi sect, enlightenment, enlightenment.

**Ачиллов Нуриддин Абдугафорович**  
Факультет социальных наук Термезского  
государственного университета декан, доцент

### НАУЧНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ УЧЕНИЯ АЛЬ-ХАКИМА АТ-ТЕРМИЗИ

**Аннотация.** В статье анализируется изучение аль-Хакима ат-Тирмизи в нашей стране, описываются учёные и их содержание. Также описан анализ жизни и творчества Алломы.

**Ключевые слова:** хакимия, единый дур, определение нации, Захир, суфийская секта, просвещение, просвещение.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N64>

**Kirish.** Har bir ijtimoiy davr kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti, turmush darajasi, fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyat rivojlanishi esa ta'lim-tarbiya ishlarining qanday darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy nazariya davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Ayniqsa, Turkiy tili davlatlar hamkorlik kengashining 2019-yil Boku shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Turkiy adabiyot durdonalari" yuz jildligini yaratish taklifi bilan chiqdi. Bundan asosiy maqsad tosh bitiklardan to bugungacha bo'lgan tarixni qamrab olish, insoniyat madaniy ongining evolyutsion davrlarini belgilash, ilm, madaniyat va tafakkurda

o'zining darajasini belgilash, bir so'z bilan aytganda, davlatning nafaqat iqtisodiy, ilmiy-madaniy ko'lamini namoyon qilishi, balki ming yillik birlikni, ming yillik ildizlarni, ruhiy-ruhoniylar quvvatlarning qayerga va nimalarga tutashini amaliy ko'rsatib berishi e'tiborga olingan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya tizimida, xususan, "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, ularni zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash" [1;4] masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki milliylik xalq, millat o'tmishiga, buguni va kelajagiga, fan va madaniyat taraqqiyotiga, milliy axloq – odobga nisbatan yuksak hurmat bilan baholanadi. Sharq faylasufi Konfutsiy: bilimsizlik insoniyat uchun eng qorong'i tundur, — degan edi. Haqiqatdan ham, bilim, ilm olish baxtiga erishish, farovon yashashning sinalgan yo'li, oltin kalitidir. Bu jarayonning to'g'ri va tizimli tashkil etilishi esa bevosita ta'lim-tarbiya tizimiga va unda bo'y ko'rsatayotgan islohotlarga bog'liq. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2023-yil 16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatida tashrif buyurib, Al-Hakim at-Termiziy maqbarasini ziyorat qildi. Ulamolar bilan suhbatda bugun dunyoda turli nizo va urushlar bo'layotgani, begunoh insonlar qoni to'kilayotgani afsus bilan qayd etildi. Bu yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik qadrini yanada teran anglatib, insonda shukronalik ruhini uyg'otishini, bu ne'matlar ahamiyatini, Termiziy kabi bobolarimiz ilm-ma'rifatini yoshlarga yetkazish muhimligi ta'kidlandi. Chunki, bugungi global jamiyatda, millatning milliy qiyofasini o'zgartirishga, ming yillik tariximizga ega odob-axloq, ezgu an'analar, inson qalbi, ruhiyatiga bo'lgan tajovuz kundan-kunga ortib borayotgan bir davrda milliy qadriyatlarning ma'naviy asosi hisoblangan buyuk allomalarning merosini chuqur o'rganish ularning boy ilmiy ma'naviy merosni har tomonlama tadqiq qilish asosida keng ommalashtirishga qaratilgan sa'y – harakatlarga turtki berish va ularning asarlari mohiyatini yoshlarimiz ongiga singdirishimiz muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shunga tayanib, biz o'rta asr Sharq allomalaridan biri **al-Hakim at-Termiziy ta'limotining tadqiqini** tadqiqot ishimizning asosiy yo'nalishi qilib belgiladik.

**Tahlil va natijalar.** Al-Hakim at-Termiziy diyorimizning eng qadimiy va hamisha navqiron ilmu ma'rifat markazlaridan bo'lgan Termiz shahridan yetishib chiqqan benazir olim, ulug' mutafakkir va ma'naviyat peshvolaridan. Allomaning ilmiy-pedagogik merosi chuqur insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, uni o'rganishda Sharq va G'arb olimlari o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shganlar. Jumladan, ilmiy va e'tiborli tasavvufiy manbalarda bu ulug' zotning nomi ehtirom bilan tilga olinadi. Abdurahmon Sulamiy (vafoti 1021y.), Abu Nuaym Isfahoniy (vafoti 1038y.), Ali Jullabiy al-Hujviriy (vafoti 1077y.), Abdulloh Ansoriy (1006-1088yy.), Fariduddin Attor (1145-1221yy.), Abdurahmon Jomiy (1414-1492yy.), Alisher Navoiy (1441-1501yy.) va boshqalar ehtirom bilan tilga olib, allomaga ta'rif beradilar.

Ilk dastlabki nazariy manbalardan biri hisoblangan Ali Jullabiy al-Hujviriyning "Kashf al-mahjub" asarida al-Hakim at-Termiziyga shunday ta'rif beriladi: "Bishr Abu Abdulloh Muhammad bin Ali at-Termiziy ilm-fanda komil, yetuk va imomlarning ilg'or peshvosi edi. Shayxlarning ulug'i va hurmatli zot edi. Karomat bayonida ko'p va yaxshi asarlari bor. Ayniqsa, mening qalbim uning tuzog'iga ilingan edi. Shu sababli ustozim Abulfazl Hasan Xatliy (XI asr): "Muhammad butun olamda tengi yo'q yagona durdir" – deb aytar edi [2; 49].

Fariduddin Attor ham “Tazkirat ul – avliyo” asarida allomaga: “sunnatning hakimi, millatning azimi, shayxi olam, mashoyixlarning muhtashamlaridan, valilarning muhtaramlaridan, barcha tillarda ta’rifli, “Qur’on” va Hadis ma’nolari bobida yagona, xulq va olihimmatlik bilan bezangan, muloyimlik va hayo bilan orasta, ilm-fanlar bobida yagona va komil, shariatu tariqat bobida mujtahid edi” — deb tavsiflaydi [3; 402.]. Ushbu tavsifidan ko’rinib turibdiki, Hakim Termiziy o’z davrining yetuk namoyondalaridan ekanligi, ajoyib xulq atvor egasi bo’lganligi va yozgan kitoblari hamma yerda mashhur bo’lib uning ichidagi so’zlar mazmuni barcha uchun tushunarli ekanligini alohida qayd etishimiz lozim.

Hazrat mir Alisher Navoiy ham “Nasoyim ul-muhabbat” asarida u zotni quyidagicha ta’riflab: “Mashoyixi kibordindur (shayxlarning ulug’laridandir) va Abu Turob Naxshabiy, Ahmad Xuzravayh va ibn Jallo bila suhbat tutubdir va ko’p hadisi bor va zohir karomati va tasnifi dag’i bor” [4; 79.] – deydi. Hazrat Navoiy tavsifida allomaning o’z davrning mashhur shayxlari bilan ilm, ma’rifat sohasida munozaralar qilganligini ko’rishimiz mumkin. Hadis yo’nalishida juda ko’plab sahih hadislar borligi va Xizr a.s. bilan suhbat qilganligi keltirilgan.

Naqshbandiya ta’limotining asoschisi Bahouddin Naqshband al-Hakim at-Termiziyini ma’naviy pir deb bilgan va alloma haqidagi fikrlarini quyidagicha e’tirof etadi: “biz yigirma ikki yildirki, al-Hakim at-Termiziy tariqatiga ergashamiz. Chunki ular besifat edilar. Agar biror kishi bilsa, edi men ham bu zamonda besifatdurman” [5; 32.]. Bu o’rinda keltirib o’tilgan “besifat” deganda janob Payg’ambarimiz alayhissalomda va avliyolarning ulug’larida bo’ladigan o’xshashi yo’q xislat. Chunki ular Hakim Termiziy, quddisa sirruhuning ruhoniyyatiga tavajjuh (diqqat) qilsalar, bu diqqat e’tibor sof besifatlik holatida bo’lar edi. Bu besifatlikda hech bir boshqa ish ko’zga tashlanmas edi deyiladi.

Al-Hakim at-Termiziyning hayoti va ilmiy merosini Vatanimizda o’rganilishi o’z tarixiga ega. Jumladan, qadimshunos olim M.E.Masson rahbarligida 1936-1938 yillarda eski Termizda ilk bor olib borilgan tadqiqot ishlari natijasi maxsus to’plam (1940-1945yy.)larda nashr etilgan. Bu tadqiqot ishlarda asosan, alloma maqbarasining qurilishi, asrlar mobaynida maqbara atrofida amalga oshirilgan turli ta’mir ishlari va har xil yangi qurilishlar tarixi aniqlangan. Bundan tashqari, M.E.Masson 1960 yilga kelib, al-Hakim at-Termiziy maqbarasi va undagi bitiklarni o’rganib chiqdi va ular (sag’ana peshtoqi va atrofidagi yozuvlar)ni rus tiliga tarjima qildi (V.V.Bartold va A.A.Semenovlar tomonidan qilingan tarjimalar ham mavjud), ularning bir butun holda nashr etilishi Vatanimiz tarixida muhim voqea bo’ldi. M.E.Masson o’zining ushbu tadqiqotida maqbara tarixi, undagi yozuvlar tarjimasi bilan cheklanib qolmay, allomaning tarjimai holi va ayrim asarlarini qisman sharhlab berdi. Qadimshunos olimlar G.A.Pugachenkova hamda Z.A.Arshavskaya, E.V.Rtveladze, Z.A.Hakimovlarning ilmiy izlanishlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Olimlarning tadqiqot ishlari izchil davom ettirildi, biroq ular faqat qadimshunoslik yo’nalishida bo’lib, asosan, maqbara qurilishi tarixiga urg’u berildi.

Al-Hakim at-Termiziy hayoti va ilmiy merosi haqidagi ilk maqola professor J.Omonturdiyev tomonidan Surxondaryo viloyati gazetasi (Omonturdiyev J. Xoja Hakim Termiziy//Lenin bayrog’i.-1970.-28-fevral.; 1971. 23-may)da “Navro’znoma” to’g’risida e’lon qilingan edi. Ayniqsa, 1990 yil taniqli sharqshunos I.Abdullayevning “Hakim Termiziy” nomli maqolasining chop etilishi alloma merosiga bo’lgan qiziqishni yanada orttirdi [2; 30.].

Mustaqillikning dastlabki kunlarida Termiz shahrida al-Hakim at-Termiziyning muazzam haykali o’rnatildi. Shu munosabat bilan matbuot sahifalarida al-Hakim at-Termiziyning hayoti

va ijodiga bag'ishlangan maqolalar ham e'lon qilina boshlandi. Shunday maqolalardan dastlabkisi Shayx Abdug'ani Abdullo qalamiga mansub bo'lib, unda al-Hakim at-Termiziy ijodiy faoliyatining ayrim qirralari sanab o'tiladi. Unda allomaning "Asror us-salot" ("Namoz sirlari"), "Asror us-savm" ("Ro'za sirlari"), "Asror al-hajj" ("Haj sirlari"), "Xatm al-avliyo", "Tahsilu nazoir al-Qur'on" ("Qur'ondagi o'xshash kalimalar tahsili"), "Bayon al-kasb", "Kitob al-furuq", "Kitob al-avliyo", "Kitob adab un-nafs", "Navodir al-usul" asarlarining nomlari ilk bor o'zbek kitobxonlariga ma'lum qilindi. Maqolada allomaning Qur'on tafsiri borasidagi, hadis ilmi sharhi sohasidagi, fiqh masalalari yo'nalishidagi faoliyatiga qisman oydinliklar kiritiladigan.

So'nggi yillarda yurtimizda allomaning ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. O'zbek olimlarining maqola, risolalari chop etila boshlandi. M.Hasaniy va G'.Jo'rayeva allomaning "Navro'znoma" va "Solnoma" (1991y.) asarlarini nashrga tayyorlashdi. Tarixchi olimlardan Sh.Boboxonov, A.Irisov "Hadis ilmining peshvolari" risolasida "Yana ikki Termiziy haqida" nomli maqolani ilova etib, al-Hakim at-Termiziy va Sayyid Husayn Burhoniddin Muhaqqiq haqida so'z yuritadi. Sh.Safarovning "Termiz va Termiziylar" risolasida alloma zikriga doir bir rivoyat va juz'iy ma'lumot mavjud. Qadimshunos olim T.Annayev yozgan "Al-Hakim at-Termiziy" risolasi mavzuning qo'yilishi va hal etilishi jihati bilan ajralib turadi. Chunki risolada al-Hakim at-Termiziyning hayoti va faoliyati hamda alloma maqbarasi tarixi bilan bog'liq qiziqarli masalalarga e'tibor berilgan.

Keyingi yillarda bu sohadagi ishlar davom ettirildi, tarixchi olim, professor S.Tursunovning "Termiziy buyuk siymolar" risolasida allomaga oid axborotlar kengaytirilgandek tuyulsa-da, ma'lumotlar ancha siqiq va ixcham berilgan. Bu xil hodisa A.Isayev, S.Ergasheva, O.Isayevlarning "IX-XII asrlarda Termiz madaniyati" risolasiga ham taalluqli. "Surxondaryoning tabarruk ziyoratgohlari" risolasi muallifi A.Xolmirzayev ham alloma borasida mustaqil fikrlar bildirgan bo'lsa, professor J.Omonturdiyevning "Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti" risolasida alloma ijodi tadqiqot tarixi, tarjimai holiga doir ma'lumotlar, "Hakimiya" ta'limoti xususida to'xtalib, al-Hakim at-Termiziy va avlodlar aloqasi masalasida ham fikr bildiriladi. Katta zahmat evaziga yaratilgan ushbu risolada muqaddas islom dini rukni tamoyillarini anglab olishda beqiyos ahamiyatga ega. Chunki islom dini qonun – qoidalari tasavvuf diniy – falsafiy oqimi namoyandalari ijodida qay yo'sinda ifoda topganligini tadqiq etish uchun maxsus ko'nikma, chuqur bilim, teran kuzatuvchanlik zarur. Risola muallifi avvalo, al-Hakim at-Termiziy ta'limoti "Hakimiya" tariqatining ilk sarchashmalarini aniqlab va shundan so'ng ul zoti oliy ilmi ilohiyotining siri, sehri, o'zagi hamda g'oyalarini chuqur tahlil etadi. Ushbu risola xayrli ishning debochasi, Hakimiya ta'limotining hozirgi davr talabiga mos tahlil etilishi ibtidosi sifatida ham o'z qadri va ahamiyatiga ega [6; 79.].

O'tmish so'fiylik tariqati namoyandalari ilmiy merosini tadqiq etish tariximizning g'ubor bosgan sahifalarini ochishda keng imkoniyatlar beradi. Shu sababli mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan "Surxondaryo tarix ko'zgasida" va "Surxondaryo tarixi" kitoblari sahifalaridan joy olgan Termiziylarga oid mavzular alohida ahamiyatga molikdir. Z.Choriyevning "Al-Hakim at-Termiziy merosini o'rganishda Yevropa sharqshunoslarining o'rni" mavzusidagi maqolasi e'tiborga sazovor bo'lib, unda Yevropa va arab sharqshunos olimlarining ilmiy izlanishlari tahlil etilgan. Yuqorida qayd etib o'tilgan ishlar sirasiga kelib qo'shilgan bir ilmiy-tadqiqotni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ushbu risolaning boshqa risolalardan farqi shundaki, u ko'lami jihatdan ixcham bo'lishiga qaramay, mazmun va mohiyati juda muhim hisoblanadi.

O'zining "Termiz sayyidlari" va "Termiz tarixi" risolalari bilan o'quvchilarga manzur bo'lgan, bu sohada o'z iste'dodini namoyon eta olgan tarixchi olim Jaloliddin Mirzodir. Uning "Muhammad Hakim Termiziy: hayoti va ijodi" nomli risolasi al-Hakim at-Termiziy siymosini xalqimizga tanishtirishda ahamiyatga molik. Zero, risola ilmiy, ammo shu bilan birga ommabop tilda yozilgan. Unda ko'plab tadqiqotlar jalb etilganligi, kerakli izohlar bilan boyitilganligi, mazkur yo'nalishda yurtimiz va xorijlik olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqot ishlarining to'liq ro'yxati berilganligi risolaning yuqori saviyada yaratilganligini ko'rsatib beradi.

Ayniqsa, al-Hakim at-Termiziyning hayoti va ijodini bu qadar mukammal darajada tadqiq etilgan risolaning o'zbek tilida nashr etilishining o'zi bir hodisa. Shayx Farididdun Attor (1145-1221yy.)ning "Tazkirat ul-avliyo" asaridagi al-Hakim at-Termiziyga taalluqli sahifalarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi alloma ijodini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega. Bu borada professor J.Omonturdiyev, yosh sharqshunos J.Fattayev va islomshunos tarjimon olim M.Kenjabekning 2001- yilda "Termiz tazkirasini" va 2017-yil "Buyuk Termiziylar" kitoblarida qadimiy Termiz va Chag'oniyon hududida o'tgan 90 dan ortiq aziz avliyo, ulamo va fuzalo, shoir va adib Termiziy hamda Chag'oniylar zikr qilingan. Ayniqsa, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari tomonidan "Saraxs ahli so'ragan masalalar. Kasbning bayoni" asari, yosh iqtidorli tarjimon Jo'rabek Cho'tmatov tomonidan "Muhammad Hakim Termiziy risolalari" nomli asarida allomaning "Hakim Termiziy yo'lining boshlanishi", "Nafs odobi", "Nafs riyozati", "Kasb tirikchilik bayoni" risolalarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi ancha tahsinga sazovordir.

Abdulqahhor Shoshiy tomonidan al-Hakim at-Termiziyning "Manozil ul-ibod min al-iboda" ("Mo'minlarning ibodatdagi darajalari") asari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu asar tarjimasiga yozilgan so'z boshi, adabiyotshunos olim S.Sayfulloh, professor U.Uvatov tomonidan yozilgan taqrizlar alloma haqida yanada kengroq ma'lumotlarni olishda yordam beradi.

**Xulosa.** Ko'rinib turibdiki, mustaqillik tufayli al-Hakim at-Termiziy hayot yo'li va ilmiy ma'naviy merosi xususida juda ko'plab ezgu va xayrli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, rejissyor Mansur Ravshanov rahbarligida "Hakim Termiziy" haqida spektakl sahnalashtirildi. O'zbekkino milliy agentligi buyurtmasi asosida "Al-Hakim at-Termiziy" nomli hujjatli film namoyish etildi. 1993-yilning 5-aprelida ilk bor alloma al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan milliy kurash bo'yicha 2004-yilda Termiz davlat universitetida "Al-Hakim at-Termiziy va uning davri" mavzusida Xalqaro ilmiy anjuman, 2009-yili alloma xotirasiga bag'ishlangan milliy kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun an'anaviy IX Xalqaro turnirning o'tkazilishi munosabati bilan Termiz davlat universitetida "Al-Hakim at-Termiziy hayoti va merosi", "O'zbek kurashi tarixi, taraqqiyoti va istiqbollari" mavzularida Xalqaro ilmiy – nazariy konferensiya, 2011-yil 19-24 -oktyabr kunlari Termiz shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun an'anaviy Xalqaro turnir hamda VIII Jahon chempionatining o'tkazilishi munosabati bilan Termiz davlat universitetida "Al-Hakim at-Termiziy hayoti va ijodiy faoliyati", "Yosh avlodni tarbiyalashda kurashning o'rni va ahamiyati" mavzularida Xalqaro ilmiy anjuman o'tkazilib, anjuman materiallari o'zbek, ingliz va rus tillarida nashr etildi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son Farmoni. -Toshkent sh., 2022-yil 28-yanvar.
2. Tursunov S., Murtazoyev B. Termiziyning ilmiy tafakkuri. — T.: "O'zbekiston", 2016. — 280 b.
3. Attor Fariduddin. Tazkirat ul-avliyo. — T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2013. — 464 b.
4. Navoiy Alisher. Nasoyim ul-muhabbat // Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik, 17-jild. — T.: "Fan", 2001. — 534 b.
5. Abu Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon. — T.: "Yozuvchi", 1993. — 208 b.
6. Abdugafforovich A. N. Scientific theory of al-khakim at-termezi //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
7. Achilov N.A. Al-Hakim at-Termiziy asarlari vositasida talabalarda ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi. Ped.fan.bo'y.fal.dok. ... diss. – Termiz, 2020. — 173 b.
8. Termiziy al-Hakim. Saraxs ahli so'ragan masalalar. Kasbning bayoni // Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimai. — T.: "Hilol-Nashr", 2017.- 160 b.
9. Choriyev Z., Annayev T., Murtazoyev B, Annayev J. Al-Hakim at-Termiziy. — T.: "Yangi asr avlodi", 2008. – 150 b.
10. Achilov N.A. Al Hakim at-Termiziyning ilmiy merosidan pedagogik jarayonda foydalanish //Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio'. -Nukus. -2019.-5-son. –B.17.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).